

Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma‘lumot
- II.** Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III.** Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari
- IV.** Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari
- V.** Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI.** Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma‘lumot

2026-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 20 365 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma‘lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta‘minlash maqsadida Soliq qo‘mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik

**Shahar va tumanlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

	2025- yil 1- aprel holatiga, birlik	2026-yil 1- aprel holatiga, birlik
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	17 876	20 365
Amudaryo	1 503	1 624
Beruniy	1 627	1850
Bo‘zatov	298	318
Qorao‘zak	404	459
Kegeyli	551	639
Qo‘ng‘irot	1 025	1154
Qonliko‘l	485	577
Mo‘ynoq	436	587
Nukus	687	832
Taxiatosh	544	583
Taxtako‘pir	252	265
To‘rtko‘l	2 021	2129
Xo‘jayli	929	991
Chimboy	757	867
Shumanay	358	503
Ellikqal‘a	1 206	1401
Nukus sh.	4 793	5 586

**Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni**




shaxslar haqidagi ma‘lumotlar bazalari to‘liq xatlovdan o‘tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirilgan ma‘lumotlar.

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-martida 1 018 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 354 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 140 ta, sanoatda 120 ta hamda boshqa xizmatlarda 164 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



■ Iqtisodiy faoliyat turlari

**Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**


	2025- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Qoraqalpog'iston Respublikasi	773	1 018
Amudaryo	52	80
Beruniy	82	97
Bo'zatov	17	10
Qorao'zak	20	24
Kegeyli	19	30
Qo'ng'iro't	48	61
Qonliko'l	23	34
Mo'ynoq	21	36
Nukus	25	41
Taxiatosh	21	23
Taxtakopir	9	14
To'rtko'l	57	76
Xo'jayli	48	55
Chimboy	25	46
Shumanay	33	43
Ellikqal'a	55	63
Nukus sh.	218	285

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 57,5 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 61,2 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 930,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, ya'ni sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 38,7 % ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bo'zatov, Beruniy, Shomanay tumanlari (100,0 %), Ellikqal'a tumani (99,9 %), Xo'jayli tumani (82,5 %) va To'rtko'l tumani (75,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1 617,9 mlrd so'mni, ya'ni qurilish ishlari umumiy hajmining 48,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yilning ushbu davriga nisbatan 93,4 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus tumani (98,7 %), Amudaryo tumani (96,5 %) va Bo'zatov (95,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi dinamikasi



2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 913,4 mlrd soʻmni, yaʼni umumiy hajmidagi ulushi 41,7 % ni tashkil etdi. Oʻsish surʼati 2025- yilning ushbu davriga nisbatan 114,5 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Taxtakopir tumani (96,5 %), Beruniy tumani (91,5%), Kegeyli tumani (92,1 %), Toʻtrkoʻl tumani (86,8 %) va Boʻzatov (86,4 %) tumanlariga toʻgʻri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 2 008,1 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmidagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yilning ushbu davriga nisbatan 102,8 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Taxiatosh tumani (98,5 %), Xo'jayli tumani (99,0 %), Qorao'zak tumani (98,2 %) va Taxtako'pir (98,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 3 827,7 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmining 82,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yilning ushbu davriga nisbatan 131,4 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qonliko'l tumani (85,0 %), Nukus va Taxtako'pir tumanlari (84,9 %), Shumanay, Qorao'zak va Kegeyli (84,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 6 631,7 milliard so‘mni, ya‘ni umumiy hajmining 71,2 % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2025- yil yilning ushbu davriga nisbatan 113,5 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko‘p ulushi Nukus shahri (126,4 %), Qanliko‘l tumani (124,9 %), Qorao‘zak tumani (122,8 %), Taxtako‘pir tumani (121,9 %) va Taxiato‘sh (121,8 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 24 986,3 ming AQSH dollarini, ya'ni umumiy eksport hajmining 28,7 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'zatov, Qorao'zak, Moynoq, To'rtko'l, Shomanay va Ellikqal'a tumanlarida – 100,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 65 542,0 ming AQSH dollarini, ya'ni jami importning 62,6 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Bo'zatov, Mo'ynoq, Shumanay 100,0 % va Beruniy, Qong'iro't tumanlarida – 99,1 % ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar)
import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,0 % ni tashkil etdi. 2025- yilning ushbu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 102,1 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-dekabrda avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,7 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2025-yilning ushbu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 98,6 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,2 % ni tashkil etib, 2025- yilning ushbu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,0 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,0 % ni tashkil etib, 2025- yilning ushbu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo‘yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma‘lumotlariga ko‘ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 39,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2026- yilning yanvar-martida esa 29,5 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 54,2 % bo‘lgan bo‘lsa. Bu ko‘rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 65,5 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar- mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2026- yilning yanvar-martida 29,5 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalar ulushi 2026- yilning yanvar-martida 65,5 % ni tashkil qildi.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2026- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 5,0 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar- mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalar ulushi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlarda – 26,9 % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,7 % ni va axborot va aloqada – 16,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi eng ko'p ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida – 62,5 % axborot va aloqa sohasida – 50,0 % ni, tashish va saqlash sohasida – 48,0 % ni va qurilish sohasida – 47,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi – sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatishda 12,5 %, xizmatlarda – 7,7 % ni va sanoatda – 5,6 % ni tashkil etdi.



**Biznesga ishonch muhitini baholash
(o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar)**



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o‘z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo‘lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.